

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA KONSEPTUAL
TAMOYILLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Nodira Nazarkulovna Eshmanova

Boshang'ich ta'lism metodikasi katta o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Sevara Ahmadjanova

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qtuvchilarni ekalogik tarbiyalashda konseptual tamoillar, boshlang'ich maktab, o'quv jarayoni, ekologik madaniyat, mablag'lardan foydalanish, o'quv jarayoni, o'quvchilar tomonidan yaratilgan ijod, fan o'quv-uslubiy majmuasi, ona zamin.

Kalit so'zlar: O'qtuvchi, ekologik ta'lism, konseptual tamoil, ekologik madaniyat, texnologiya, ta'lism kompetensiyalari.

XXI asrda insoniyat barqaror rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biri, birinchi navbatda, jamiyatning barcha qatlamlari va yosh avlod uchun ekologik ta'lismning ustuvor yo'nalishi deb hisoblanishi kerak. Uzluksiz ekologik ta'lism tizimining eng muhim bo'g'ini boshlang'ich maktab bo'lib, bu erda tabiiy muhitga ijtimoiy va shaxsiy qadriyat sifatida ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lish uchun asoslar yaratilishi kerak. Ammo bu faqat o'qituvchilar to'g'ri tayyorlangan taqdirdagina mumkin.

Zamonaviy ta'limming asosiy yo'nalishlaridan biri - o'quv jarayonining barcha sohalarini ko'kalamzorlashtirish bo'lib, uni amalga oshirish uzluksiz ekologik ta'lism va ma'rifat sharoitida mumkin. Uzluksiz ekologik ta'lism tizimining eng muhim bo'g'ini maktab bo'lib, u yerda tabiiy muhitga ijtimoiy va shaxsiy qadriyat sifatida ongli, mas'uliyatli munosabatda bo'lish asoslari yaratilishi kerak. Biroq, bu faqat o'qituvchilarning o'zlari to'g'ri tayyorlangan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Har yili maktablarga yosh o'qituvchilarning ishga kelishini inobatga olgan holda o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash butun ta'lism tizimini modernizasiya qilish omillaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida, "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lism va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobjiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning ilg'or vakillari bo'lishlari kerak", -deb alohida ta'kidlagan edi.

Shu munosabat bilan, Yurtboshimiz tashabbusi asosida "yashil iqtisodiyot"ni barpo etishda yoshlarni faol jalb etish bo'yicha Maxsus dasturni amalga oshirish taklif etilmoqda. Bu kelajakda "yashil", ya'ni ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish madaniyatini shakllantirishga katta imkoniyat yaratishi alohida ko'rsatib o'tildi.

Ekologik muammolar umumbashariy ahamiyatga ega bo'lib, insoniyat taqdiri va qadriyatlarini belgilab berishi turli dunyoqarashlarni umumiy manfaatlар asosida birlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun mahalliy, milliy, sinfiy va partiyaviy manfaatlardan tashqariga chiqadigan universal metodologiya kerak. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, uzlusiz ta'lim tizimida turli fanlarning ekologik manfaatlari asosidagi muqobil ta'lim quyidagi metodik vazifalarni hal etishga bog'liq bo'ladi:

Muayyan ekologik tushunchalar, atamalar va ta'riflarda tarixiy va mantiqiy izchillikni saqlab, turli xil o'quv fanlarining ekologik istiqbollarini yo'q qilish.

Muayyan fanlarning global, mintaqaviy, mintaqaviy va milliy ekologik muammolari va ularni umumiy manfaatlар asosida hal qilishning muqobil usullari, vositalari va usullarini aniqlash.O'quv fanlarining amaliy ekologik faoliyatini tashkiliy jihatdan samaradolrligini oshirish, optimallashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni hal etish uchun quyidagilarni amalgalash zarur:

Íkar bir fanning turli kurslarida o'qitilish jarayonida uzlusizligi va uzviyligini ta'minlash maqsadida oddiydan murakkabga borish prinsipi asosida istiqbollarini belgilangan rejalarini tuzib olish maqsadga muvofiqdir. Masalan, biologiya fani doirasida ekologik masalalarini yoritishning muayyan boblar, qismlar, mavzular bo'yicha belgilab, doimiy, izchil rivojlantirib borilsa keyingi kurs – bosqichlarida biologiyani ekologlashtirish uchun ma'lum asos yaratilgan bo'ladi. Bunday metodologik vazifani amalgalash, oliygohlardagi hammma o'quv fanlariga taalluqlidir. Umumlashtirilgan tarzda bu jarayon gorizontal hamda vertikal yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Gorizontal yo'nalishida turli o'quv fanlarining ekologlashuvi o'zaro integrasiyalashib, bir – birini to'ldirib, tizimli ekologik bilimlarni, nisbatan universal faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Vertikal yo'nalishda esa, har qanday o'quv doirasida differensiasiyalashib, chuqurroq, mukammalroq nazariy bilimlarga, amaliy tajribalarga, ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ekologik ta'lim – tarbiyaning samaradorligi shu bog'lanishning xarakteriga mos keladi. Shuningdek, umumiy tarbiyaning turli yo'nalishlardagi nazariy, amaliy, tashkiliy, metodologik, didaktik jihatlarining ham o'ziga xos gorizontal hamda vertikal bog'lanishlari ekologik ta'lim – tarbiyaning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliygohlarda, bo'lajak o'qituvchilar uchun ekologik ta'lim – tarbiyani amalgalashda qo'yidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

Talabalarning yoshini, bilim doirasini, alohida hayot sharoitlarini, ekologik materialinning muhimligini, ularning qiziqishlari hisobga olinadi.Talabalarning ekologik faoliyati oliygoh o'quv fanlari doirasida shakllangan bilimlar tizimining amalda qo'llanilishi ifodalash bilan birga kelajakda o'quvchilarga ekologik ta'lim – tarbiyani shakllantirish muammolarini ham o'z ichiga qamrab olmog'i zarur.

Bo'lajak o'qituvchi, o'quvchilarni ekologik ruhda tarbiyalab, ekologik madaniyatini rivojlantira olishdek, qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Bunday jarayonni bo'lajak o'qituvchi talabalik bosqichidayoq his etib, unga tayyor bo'lib borishi zarur. Shu nuqtai nazardan ekologik faoliyatni sind o'quvchilarga o'qitilayotgan ekologik materiallarni o'z ichiga olishini bo'lajak o'qituvchi aniq bilib olishi lozim:

ekologik amaliy vazifalarni, muammolarni aniqlash va shunga bog'liq holda ta'lism – tarbiya jarayonini rejalashtira olish;

bajariladigan ekologik vazifaning texnik, texnologik jarayonlarini, uslublarini belgilay olish; o'rganiladigan materiallarni mahalliy, regional, global ekologik muammolar bilan bog'lab tushuntira olish;

o'rganiladigan ekologik materiallarni tarixiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lay olishi;

o'quv predmetlari va sinflar o'rtasida ekologik ta'lism – tarbiya vazifalarini mantiqiy holda tarixiy jihatdan muqobillashtira olish.

Ekologik ta'lism samaradorligi ko'p jihatdan ekologik tarbiya intizomiga bog'liq bo'ladi. Ekologik tarbiya intizomi bilan ekologik tarbiyani tarbiyalash o'rtasidagi farqni ajratish didaktik ahamiyatga ega. Atrof – muhitni muhofaza qilish intizomini tarbiyalash umumiylar jarayonning uzlusiz qismi hisoblanadi. Kar qanday uzlusiz ta'lism – tarbiya jarayonida umumiylar ijtimoiy intizom bilan ekologik faoliyat intizomini shakllantirish o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash prinsipial ahamiyatga ega. Buning uchun avvalo, umumiylar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlar intizomi bilan bevosita bog'liq bo'lgan maxsus ekologik bilimlar, kategoriylar majmuasini aniqlab olish zarur. Bo'lajak o'qituvchi qo'yidagilarni amalga oshirishga ilmiy, metodik jihatdan tayyor bo'lmg'i lozim: Tabiiy atrof – muhit muhofazasi murakkab ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – siyosiy faoliyat bo'lganligidan ularning har biriga bevosita bog'liqligini; «Ekologik mexnat intizomi»; «Ekologik rejalashtirish intizomi»; «Ekologik boshqarish intizomi»; «Ekologik madaniyat intizomi»; «Ekologik huquqiy intizom»; «Ekologik estetik intizom»; «Ekologik odob, axloq intizomi», kabi tushunchalarining mazmunini o'quvchilarga shakllantirib, amaliy ko'nikmalarga aylantirish ta'lism – tarbiyaning asosiy muammolaridan biri ekanligini tushuntirish zarur hisoblanadi. Bu esa o'qituvchining bilimdonlik darajasi, pedagogik mahoratidan, tashqari uning shaxsiy namunasiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Ekologik ta'lism tizimini qayta qurishda nazariya bilan amaliyotning birligini amalga oshirishda hamda shu sohada ko'proq, jiddiylikni talab qiladi.

Bo'lajak o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida o'quvchilarning ekologik bilimlariga, avvalgi darslarda o'zlashtirilgan ekologik tushunchalar tizimiga qanday yangi mazmundagi tushunchalarni kiritishini, ularning avval o'zlashtirilgan tushunchalar bilan tarixiy, mantiqiy jihatlardan bog'lanish imkoniyatlarini aniq tasavvur qilmog'i lozim va uni amalga oshirishi zarur. O'quvchilarning olgan bilimlarning to'laqonligi, uni atrof – muhitni muhofaza qilish manfaatlari bilan bog'lay bilish malakalarida ifodalananadi. Atrof – muhit muhofazasiga doir yetarli bilim darajasiga ega bo'lgan o'quvchilarning ham shaxsiy ekologik sifatlarini avtomatik tarzda shakllantirib bo'lmaydi.

Buning uchun o'quvchi bilib olgan ekologik bilimlar majmuasi, madaniyat va qadriyatlari jamiyatning umumiylar manfaatlari bilan bog'lanib, hayotiy ehtiyojlarga aylanishi zarurligi talab qilinadi. Masalan, bola atrof – muhitni muhofaza qilish zarurligini tushunadi, ammo u kundalik faoliyatida bunga amal qilmasligi, loqaydligining sababi ekologik bilimlarining e'tiqodiga, axloqiy normaga aylamaganligidandir. O'quvchiga pand – nasihat berish yo'li bilan atrof – muhitni qo'riqlashni amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilarning turli ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – siyosiy munosabatlariga ekologik mazmunni singdirish zarur. Ana shunda bu

vazifani hal etish mumkin. Yosh avlodning ekologik ehtiyojini, mas'uliyatini his etib, ilg'or faol mavqyeini mustahkam himoya qilishini hayot tarziga aylantirgan kishini tarbiyalash uchun eng avvalo o'quvchilarni yashab turgan muhiti bilan bog'liqligini, atrof –muhitning bevosita tarkibiy qismi ekanligini anglatish kerak. Tabiiy boyliklarga nisbatan «xalqniki», «bizniki», «meniki» degan tushunchalarga o'quvchilarning muayyan shaxsiy munosabatlarini mas'uliyatini, burchini, tarbiyalamasak, jumraklardan bekorga oqib yotgan suvgv qarab turgan yoshlardan xafa bo'lishga o'rinn bormikan? O'quvchi hayot tajribasiga ega bo'lmay, ota – onalarining bag'rida yashaydilar, maktabdag'i o'qishda chuqur va keng ma'nodagi bilimlarni egallashni hali to'liq his qilmaydilar. Atrof – muhit haqida o'ylab ko'rmaydilar, «erkin» holda bo'ladilar. O'quvchilarda atrof – muhitni muhofaza qilish masalalarini o'rganish ijtimoiy – psixologik munosabatlarini muayyan sharoit ta'siri orqali o'zgaradi. O'quvchilar tomonidan ekologik masalalarni o'rganish turlicha motivlar orqali amalga oshadi.

O'qitishda ekologik ta'lif – tarbiyani yaxshi ta'minlash uchun o'quvchilarga ekologik faoliyatlarining qiziqarli va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Barcha metod, vosita, usullar o'quvchilarda ekologik tarbiyani tarkib toptirshga qaratilmasdan, balki o'quv materiallarni puxta o'zlashtirishga ijobiy ta'sir etishi kerak. Bu faqat didaktik ma'lumotlar vositasidagina amalga oshirilishi mumkin. Masalan, darslarda o'rganish uchun ekologik materiallarni tanlash, eng foydali o'qitish metodlari qo'llash, o'quvchilarning ishlab chiqarish faoliyatlariga bog'liq bo'lgan ekologik muammolarni o'zaro munosabatiga ta'sir etish va kasbga yo'llash. Bu hozirgi ishlab chiqarishdagi ekologik masalalar mohiyatini ochib berish bilan amalga oshiriladi: o'quvchilar yashaydigan joyda mavjud bo'lgan ekologik masalalarni hal etish istiqbollari va vositalarni ko'rib chiqish, o'qitish motivlari, hayotiy jarayonlargagina bog'liq bo'lgan masalalarini yechibgina qolmasdan, o'z hayotiy o'rinalarini aniqlashga va e'tiqodlarini yaratishga, ekologik siyosiy ma'lumotlarining to'g'ri aniqlashga erishishiga bog'liq bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishning texnologik yondashish o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi tajribasini to'la-to'kis tashkiliy, boshqariladigan va ijobiy natijasini oldindan aytish mumkin bo'lgan jarayonga aylantiradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 36 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni, “Xalq so'zi”, 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019 yil 30 oktyabrg’.
4. To'rdisulov E.O. Ekologiya fanidan davlat ta'lif standartlari T. 1999 yil.
5. Kuchkinov A.Yu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e`zozlash ruhida tarbiyalash. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – T.:, «Fan va texnologiya», 2012, 88 bet.

6. N.N.Eshmanova. Boshlang'ich ta'lism o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulotlarda tabiatga ehtiyyotkorona munosabatini shakllantirish. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limgardolzARB masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022 yil 130-133 b
7. Абдумажитовна, Ш., & Эшманова, Н. Н. (2021). Ўзбекистон олий педагогик таълим муассасаларида мутахассислик фанларини ўқитиш кластери. Scientific progress, 1(4), 15-20.
8. O'tayev, A. Y., Eshmanova, N. N., & O'tayev, A. Y. (2020). Ta'lim taraqqiyotida renassansning o'rni. Academic research in educational sciences, 1(4), 788-794.
9. Eshmanova, N. N. (2022). THe formation of ideological and ideological immunity is an important condition for the formation of a harmonious personality. Galaxy international interdisciplinary research journal, 10(10), 254-258.
10. Abdujalilova, S. A., O'Tayev, A. Y. L., & Eshmanova, N. N. (2021). Pedagogik ta'lim innovatsion klasterida pedagogik sinflarning mazmun va mohiyati. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 11-13.
11. Eshmanova, N. N. (2021). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INSHO VA BAYON IJODIY ISHI. Academic research in educational sciences, 2(4), 1588-1595.
12. Eshmanova, N. N. (2020). TA'LIM TARAQQIYOTIDA RENASSANSNING O'RNI. Academic research in educational sciences, (4), 788-794.
13. Vladimirovich, G. Y. (2022). PRECEDENT-RELATED NOMINALS: CLASSES AND ORIGINS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 212-217.
14. Туньян, А. А., Тошпулатов, Х. М., Ибрагимов, Ф. З., Умматов, А. А., Пулатов, А. А., Ашуркова, С. Ф. (2021). Развитие паралимпийского спорта в Ташкентской области. Спорт и социум, 5(14), 76-78.
15. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022). PEDAGOGICAL SCIENCE EDUCATION MANEGMENT IN TEACHING SCIENCE OF PEDAGOGICAL SCIENCES. Uzbek Scholar Journal, 10, 529-537.
16. Eshmanova, N., & G'anibayeva, B. (2022). Qozoq va o'zbek tillaridagi omonim so'zlar va ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari. Academic research in educational sciences, 3(1), 848-851.